



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

BOLALAR ADABIYOTI VOSITASIDA O‘QUVCHILARDA BADIY-ESTETIK QOBILIYATNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDA FOYDALANISH

Sh. A. Anvarova

Upgrade LC o‘qituvchisi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada bolalar adabiyoti vositasida o‘quvchilarda badiiy-estetik qobiliyatni rivojlantirishda zamonaviy ta’lim texnologiyalari haqida aytib o‘tiladi. Shuningdek, badiiy asarlar orqali o‘quvchida kreativ firlash, estetik didning rivojlanishi hamda raqamli texnologiyalar orqali ta’lim samaradorligini oshirish haqida aytilgan.

Kalit so‘zlar: kreativlik, yondashuv, raqamli texnologiya, axloqiy qoidalar, estetik did, ilmiy tafakkur.

Hozirgi globallashuv va raqamli texnologiyalar rivojlangan davrda ta’lim tizimiga innovatsion yondashuvlarni joriy etish dolzarb masalaga aylanmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarning badiiy-estetik tafakkurini rivojlantirish muhim pedagogik vazifalardan biriga aylanmoqda. Bu jarayonda bolalar adabiyoti o‘quvchilarning ma’naviy dunyoqarashi, estetik didi va ijodiy tafakkurini shakllantiruvchi asos sifatida namoyon bo‘ladi. Estetik tarbiya – bu bolalarda go‘zallikni anglash, qadrlash va unga intilish hislarini shakllantiruvchi muhim tarbiyaviy yo‘nalishdir. Ayniqsa, bu jarayon bolalik davridan boshlanishi zarur, chunki bola tafakkuri, dunyoqarashi va axloqiy qadriyatlarini aynan ilk yillarda shakllana boshlaydi. Shu nuqtayi nazardan, bolalar adabiyoti estetik tarbiyaning eng kuchli vositalaridan biri hisoblanadi. Chunki



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

badiiy adabiyotda tabiat go‘zalligi, insoniy tuyg‘ular, ezgulik, xayrixohlik, halollik kabi estetik-axloqiy tushunchalar hayotiy obrazlar orqali ta’sirli tarzda ifodalanadi.

Bolalar uchun yozilgan ertak, she’r, hikoya va dostonlarda estetik zavq uyg‘otuvchi obrazlar, tasvirlar, badiiy vositalar bolalarning didini shakllantiradi, go‘zallikni anglash va baholash qobiliyatini rivojlantiradi. Shuningdek, bolalar adabiyotini o‘qish jarayonida o‘qituvchi turli metodlardan foydalanish orqali estetik tarbiyaga erishishi mumkin. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Maktabni o‘zgartirmasdan turib, jamiyatni o‘zgartirib bo‘lmaydi”, deya ta’kidlaganidek, bugungi ta’lim tizimida o‘quvchilarning badiiy-estetik tafakkurini rivojlantirish dolzarb pedagogik vazifalardan biridir[1].

Bolalar adabiyotini zamonaviy STEAM ta’lim modeli hamda multimodal yondashuv asosida o‘qitish o‘quvchilarni nafaqat o‘qish savodxonligi, balki kreativ fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish va fanlararo integrativ kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu usul va metodlar bo‘yicha bir qancha olimlar ish olib borganlar. Xususan, Ya.A. Komenskiy, K.D Ushinskiy, Gulnora Qahhorova, A.Qahramonov, jahon olimlaridan John Dewey, Gunther Kress, Theo van Leeuwen kabi ilm-fan egalari bu yondashuv asosida izlanishlar qilganlar. STEAM-(Science, Technology, Engineering, Art va Mathematics)-fan, texnologiya, ingener, san’at, matematikafanlari integratsiyasiga asoslangan zamonaviy ta’lim modeli hisoblanadi. Ushbu yondashuv ta’lim jarayonida nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog‘lash imkoniyatini beradi. STEAM ta’limining asosiy fazifasi:

- *bola shaxsini shakllantirish;
- *mustaqil fikrlashni o‘rgatish;
- *amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish;
- *fanlararo integratsiyani ta’minlashdan iborat;



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

Ularning qiziqishlari, yoshiga mos asarlarni tanlash, ularning shaxsiy tajribalari va his-tuyg'ulari bilan bog'lash orqali estetik tarbiya samaradorligi oshadi.

Ushbu yodashuvlarni qo'llash jarayonida o'quvchida quyidagi pedagogik natijalar yuqori samara beradi:

-o'quvchilarni badiiy-estetik qobiliyati rivojlanadi;

-kreativ va innovatsion fikrlash shakllanadi;

-fanlararo integratsiya kuchayadi;

-ta'lim samaradorligi oshadi;

-raqamli kompetensiyalar rivojlanadi;

-multimodal yondashuv yordamida bolada individual qobiliyatlar yuzaga chiqadi;

Xulosa qilib aytganda, bolalar adabiyoti vositasida o'quvchilarda badiiy-estetik qobiliyatni rivojlantirish natijasida STEAM va multimodal yondashuvlardan foydalanish natijasida ta'lim jarayonining samaradorligi oshadi. Ushbu yondashuv orqali o'quvchilarning estetik didi, kreativ tafakkuri, obrazli fikrlashi hamda raqamli kompetensiyalari shakllanadi. Ayniqsa, multimodal texnologiyalari, sahnalashtirish va loyiha asosidagi ta'lim usullari bolalarning ijodiy salohiyatini oshirishda muhim pedagogik vosita bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Sh. M. Mirziyoyev Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga yo'llagan murojaatnomasida, 2022-yil 20-dekabr.

2. Georgette Yakman ST&@M Education: An Overview of Creating a model of integrative Education\ 2008-yil AQSH da taqdim qilingan ilmiy konferensiya materiali. Kim va Blogger-Exploring the exemplary STEAM Education in the USA as a practical Educational Framework for Korea\ 2012-yil 31-avgust, The Korean Association for Science Education tomonidan nashr qilingan. STEAM –



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

Educational Framework to Relate things to each other and reality\2019-yil STEAM ta'lim konsepsiyasini tushuntiruvchi maqola sifatida e'lon qilingan. Iris Heung Yue Yim STEAM in early childhood education:a scoping review\2024-yil, boshlang'ich ta'limdagi STEAM tadqiqotlariga bag'ishlangan xalqaro taqrizli jurnal maqolasi sifatida nashr etilgan.

3. Shahnoza Ishmetova "Boshlang'ich sinf darslarini STEAM dasturi asosida tashkil etish texnologiyasi" 2022-yil 14-oktabr, Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences ilmiy jurnali, 1-jild, 5-son, 149-152-betlar. Lobar Rajabova Methodology for using STEAM technology in primary education 2025-yil 9-12-iyun\ Modern science and research xalqaro ilmiy jurnali, 1-jild, 6-son. G'ofurjon Mukhamedov "Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri" konsepsiya-2019-yil.

4.www.pedagog.uz